

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I.* Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II.* Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari
- III.* Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari
- IV.* Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti
- V.* Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 7 964,4 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



2025-yilning yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Nukus shahri (1 508,0 mlrd so‘m), To‘rtko‘l tumani (631,0 mlrd so‘m) va Ellikqal‘a tumanida (495,4 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 964,4	110,5
Nukus shahri	1 508,0	100,6
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	314,9	102,8
Beruniy	394,3	104,4
Bo'zotov	81,8	132,2
Qorao'zak	76,2	110,7
Kegeyli	108,4	103,3
Qo'ng'iro't	375,3	124,5
Qonliko'l	94,1	102,8
Mo'ynoq	440,8	183,8
Nukus	283,8	110,7
Taxiatosh	282,8	116,2
Taxtakopir	75,4	131,3
To'rtko'l	631,1	102,3
Xo'jayli	292,0	103,4
Chimboy	159,3	107,3
Shumanay	99,4	126,5
Ellikqal'a	495,4	111,6

II. Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta jihozlash ishlari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **72,6 %** i yoki **5 779,8** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan. Jumladan:

Yirik qurilish tashkilotlari – **807,6** mlrd so'm, *jamiga nisbatan ulushi – 14,0 %*;

Kichik korxona va mikrofirmalar – **2 620,2** mlrd so'm *hamda ulushi – 45,3 %*;

Norasmiy sektor – **2 352,0** mlrd so'm *hamda ulushi – 40,7 %*.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 68,3 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ni tashkil etdi;


- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 24,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 142,2 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,0 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 200,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



IV. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 233,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 145,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,7 % ga ko'payib, 15,5 % ni tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,9 % i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etgan holda 4 134,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida korxona turlari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Resp.	1 233,4	4 134,1	2 596,9	145,8	108,6	101,6
Nukus shahri	85,8	1 300,6	121,6	86,2	101,4	104,3
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	9,4	176,8	128,7	39,3	111,6	103,8
Beruniy	22,3	227,1	144,9	231,9	101,6	100,2
Bo'zotov	3,5	61,9	16,4	96,5	150,4	95,6
Qorao'zak	16,6	45,4	14,2	170,2	102,2	96,7
Kegeyli	13,1	76,9	18,4	46,2	129,8	106,7
Qo'ng'iro't	238,7	100,8	35,8	137,2	110,1	99,7
Qonliko'l	6,3	14,7	73,1	149,2	149,4	94,2
Mo'ynoq	323,4	96,1	21,3	263,1	99,6	103,8
Nukus	11,7	186,3	85,8	98,1	116,1	101,9
Taxiatosh	84,0	169,5	29,3	158,9	104,9	100,7
Taxtakopir	19,9	43,1	12,4	532,7	104,4	99,4
To'rtko'l	73,8	375,6	181,7	105,5	117,9	101,9
Xo'jayli	3,8	231,7	56,5	107,8	104,7	100,1
Chimboy	9,5	41,6	108,2	97,2	134,8	100,3
Shumanay	10,3	51,5	37,6	147,7	159,5	95,2
Ellikqal'a	56,2	350,7	88,5	133,3	109,7	108,2

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 32,6 % ni yoki 2 596,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi. Shundan 2 530,3 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 1,7 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 244,9 mlrd so'mni tashkil etdi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
D. Abdullaeva

Manzil:
230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-75-91
